

**2022-YILGI MAVSUMDA
O‘ZBEKISTON PROFESSIONAL FUTBOL LIGASI
TOMONIDAN O‘TKAZILADIGAN
MUSOBAQALAR REGLAMENTIGA KIRITILGAN
O‘ZGARTIRISH VA QO‘SHIMCHALAR**

UZBEKISTAN
PROFESSIONAL FOOTBALL
LEAGUE

Mazkur o'zgartirish va qo'shimchalar O'zbekiston Professional futbol ligasi Ijroiya qo'mitasining 2022-yil 24-fevraldagi yig'ilishida ma'qullangan.



UZBEKISTAN
PROFESSIONAL FOOTBALL
LEAGUE

Birinchi liga, Ayollar Birinchi ligasi musobaqalarida ishtirok etadigan jamoalar sonidan kelib chiqib, "2022-yilgi mavsumda O'zbekiston professional futbol ligasi tomonidan o'tkaziladigan musobaqalar reglamenti"ga quyidagi o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilsin:

1. 19-bobning 19.5-bandi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

19.5. Birinchi liga musobaqasi jami 30 turdan iborat ikki davrali tizimida o'tkaziladi. Bunda har bir klub 15 ta uy va 15 ta safar uchrashuvida ishtirok etadi.

2. 19-bobning 19.7-bandi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

19.7. Ayollar Birinchi ligasi.

Musobaqa markazlashgan holda o'tadi va u 15 turdan iborat bo'ladi. Bunda har bir ishtirokchi jamoa (AGMK II bundan mustasno) musobaqaning markazlashgan 3 ta turiga mezbonlik qiladi va eng so'nggi tur uchrashuvlari poytaxt Toshkentda bo'lib o'tadi.

Musobaqa yakuniga qadar har bir jamoa jami 12 tadan uchrashuvda maydonga tushadi. Bunda:

- turlarda barcha tashkiliy ishlar bilan bog'liq sarf-xarajatlar mezbon jamoa zimmasiga yuklanadi (Toshkentda o'tadigan so'nggi tur bundan mustasno);
- Birinchi ligada 1-o'rinni egallagan klub 2023-yilni Oliy ligada o'tkazadi.

3. 20-bobning 20.1-bandi quyidagi mazmundagi satr bilan to'ldirilsin:


• 1/8 final bosqichiga qur'a tashlash marosimida guruh g'oliblari alohida savatda bo'ladi va ular ushbu bosqichda bir-biri bilan, shuningdek, Osiyo Chempionlar ligasining guruh bosqichida ishtirok etuvchi klublar bilan to'qnash kelmaydi. Bir o'yindan iborat uchrashuvlarga kim mezbonlik qilishi qur'a yordamida aniqlab olinadi.

4. 20-bobning 20.2.-bandi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

20.2. Ayollar o'rtasida O'zbekiston kubogi.

O'zbekiston kubogi musobaqasida Oliy liga hamda Birinchi liganing 14 ta jamoasi g'oliblik uchun kurash olib boradi. Bunda:

- magʻlub boʻlgan jamoa musobaqani tark etadi;
- kubok bellashuvlari 1/8 finaldan boshlanadi. Oʻzbekiston kubogining amaldagi sohibi kubok musobaqasiga 1/4 final bosqichidan qoʻshiladi;
- 1/8 final bosqichi qurʻasida bitta omadli jamoa avtomatik tarzda 1/4 final yoʻllanmasini qoʻlga kiritadi;
- kubok uchrashuvlari faqatgina 1 ta uchrashuvdan iborat boʻladi. Mezbon jamoalar nomiga qurʻa tashlash yoʻli bilan oydinlik kiritib beriladi;
- kubok uchrashuvlarining asosiy vaqti durang bilan yakuniga yetsa, 15 daqiqadan ikki qoʻshimcha taymlar belgilanadi. Shunda ham gʻolibni aniqlashning imkoni boʻlmasa, navbat penaltilar seriyasiga beriladi.



UZBEKISTAN
PROFESSIONAL FOOTBALL
LEAGUE